

Tarbiyachining nutqining jarangdorligi

Резонанс речи педагога

The resonance of the educator's speech

Hamrayeva E`zoxon Muzaffarovna - o`qituvchisi
Arziyeva Zilola - talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi, quyidagi shartlarga amal qilishi kerak: Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori oliy ma'lumotli, saviyali, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tatbiq eta oladigan kishi bo'lishi kerakligi aytib o'tiladi.

Аннотации

В этой статье педагог должен быть специально подготовлен, чтобы стать мастером своей профессии, чтобы соответствовать следующим условиям: необходим человек, который может работать, учиться на опыте передовых учителей и применять его в своей работе.

Annotation

In this article, the educator must be specially prepared to become a master of his profession, to comply with the following conditions: It is necessary to have someone who can work, learn from the experience of advanced teachers and apply it in their work.

Kalit soʻzlar: tarbiyachi, nutq, maktabgacha yoshdagi bolalar, pedagog, talab, adabiyot, ravon nutq.

Keywords: educator, speech, preschool children, teacher, demand, literature, fluent speech.

Tarbiyachi nutqiga qoʻyilgan pedagogik talablar. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlangʻich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahloq, oʻz tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda boʻlish, yaxshilik, haqiqatgoʻylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, oʻsimlik va hayvonlarga gʻamxoʻrlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarning mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarini tarbiyalaydi.

Tarbiyachi oʻz kasbining mohir ustasi boʻlish uchun maxsus tayyorgarlik koʻrishi, quyidagi shartlarga amal qilishi kerak: Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori maʼlumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilgʻor tajribali pedagoglarning tajribasini oʻrganib, oʻz ishiga tatbiq eta oladigan kishi boʻlishi kerak. Pedagog bolalarni uzata oladigan, ularning xulqi, hatti-harakati sabablarini toʻgʻri tahlil qilib, unga jobiy taʼsir etuvchi vositalarni topa olishi kerak. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, koʻnikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham boʻlishi lozim. Taʼlim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, koʻnikmalarni yaxshi oʻzlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalanishi kerak.

Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo'yishi kerak. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolalar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilish. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aniqlay bilishi va buni bolalar bilan amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim. Tarbiyachi ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazib, axborot almashib turishi kerak. Pedagog bolalarga nisbatan xayrixohlik munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay sharoit yaratishi, hafa bo'lsa, ovunta olishi kerak. Kun tartibida olib borgan ta'lim-tarbiya ishini tahlil qila bilishi va uni yanada yaxshilash yo'llarini topa olishi kerak.

Tarbiyachi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashning zarurligi. O'qituvchi – tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murrabbiyning o'zi chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning (va boshqa kattalarning) nutq madaniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bolalar aniq va tushunarli so'zlaydigan, iboralar, so'zlar va har bir tovushni alohida-alohida aniq talaffuz etayotgan, ya'ni yaxshi diksiyaga ega bo'lgan pedagog yordamida ona tilidagi tovushlarni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtiradilar. Ko'pincha pedagoglarning talaffuzi biroz noaniq va tushunarsiz bo'ladi, ular tovushlar va so'zlarni og'izni yetarli darajada ochmasdan talaffuz qiladilar, ayrim tovushlar yutib yuboriladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi. Pedagog talaffuzning adabiy me'yorlariga rioya qilishi, o'z nutqida turli shevalar, mahalliy so'zlashuvlar ta'sirini bartaraf etishi, so'zlarda urg'uni to'g'ri qo'yishi lozim. Tovush apparati uch bo'limdan iborat: generator, energetik, rezonator.

Tovushning hosil bo'lishi:

Bu tovush kuchi bilan bog'liq (nutq apparati organlari bilan bog'liq).

Tovush jarangdorligi (tovush jarangdorligini turli masofalarga yuborib baland pastligini o'zgartirish).

Tovushning egiluvchanligi va harakatchanligi (tovushni o'zgartira olishi, tovushning baland-pastligi).

Diapazon–tovushning hajmi (chegarasi eng baland va eng pastki ton bilan belgidir).

Tembr–tovushning yaqinligi, yumshoqligi, silliqligi, hususiyliги. Tovush apparatining charchashi, tovushda bo'lgan nuqsonlar va buzilishlar orqali yuzaga keladi.

Chunki pedagog 50 foiz ish vaqtida oddiy soʻzlashishdan yuqoriroq– balandroq tonda gapiradi. Shuning uchun ish jadvalini tuzishda rahbariyat 3-4 soat ichida tarbiyachi charchab, 1 soat ichida tovush tiklanishini hisobga olishi kerak. Tajribali oʻqituvchi 2 soatda charchaydi va yana 2 soat dam olingach tovush yangitdan tiklanadi. Monoton nutq tovush apparatini charchatadi. Changdan oʻzini saqlash va sovuq havoda yurmaslik kerak. Diksiya - soʻzlarni, tovushlarni, boʻgʻinlarni unli va undosh tovushlarni (harflarni) aniq va ravon talaffuz etilishidir. Nutqda organik va noorganik kamchiliklar boʻlishi mumkin. Diksiyani takomillashtirish Monoton nutq bilan bogʻliq. Nutqdagi kamchiliklarni toʻgʻirlash uchun ifodali oʻqish boʻyicha adabiyot qoʻllanmalaridan foydalanish mumkin. Tarbiyachi nutq madaniyatiga ega boʻlishi, uning nutqi quyidagi hususiyatlarni oʻzida aks ettira olishi kerak.

- a) nutqning toʻgʻriligi;
- b) nutqning aniqligi;
- v) nutqning ifodaliligi;
- g) nutqning sofliigi;
- d) nutqning ravonligi;
- j) nutqning boyligi.

Tarbiyachi uchun namunali nutqni egallash - bu uning óz kasb-koriga tayyorligini belgilovchi kórsatkich hisoblanadi. Taniqli pedagog, bolalarni ona tiliga órgatish uslub va uslu-biyotlarini ishlab chiqqan uslubiyotchi, maktabgacha tarbiya bóyicha mashhur mutaxassis, professor Y.I. Tixeyeva tarbiyachi nutqiga yuksak baho berib, shunday degan edi; Boʻgʻchada bola-lar beixtiyor taqlid qiladigan namuna tarbiyachi (bogʻbon)ning tilidir, tarbiyachining tili bolalar tiliga goyat samarali va nihoyatda kuchli taʼsir koʻrsatadigan hamma narsalarni oʻzida birlashtira-digan boʻlishi kerak. Bogʻbonning tili beka-m-u koʻst, adabiy talaffuzning har qanday nuqsonlaridan xoli boʻlishi lozim. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, har bir tarbiyachi oʻz nutqidagi nuqsonlarni aks etiruvchi daftar tutishi, unga kam-chiliklari belgilab borishi, soʻngra ularni bartaraf etish bóyicha reja tuzib, ishni tashkil etishi kerak. Har bir tarbiyachi-pedagog nutqiga qoʻyilgan talablarni juda yaxshi bilgan holda oʻz nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etib borishi kerak.

Tarbiyachi nutqiga qoʻyiladigan asosiy talablar quyidagilardir: *Nutq tovush tomonining toʻgʻriligi*. Agar tarbiyachining nitqi aniq boʻlsa, jummalarni, soʻzlarni va har bir tovushni aniq talaffuz etsa, bolalar ona tilining tovush tomonini muvaffaqiyatli ózlashtira oladilar. Kóp hollarda, ayrim tarbiyachilar tovushlarni noaniq talaffuz etadilar, soʻzning tarkibidagi ayrim tovushlarni tushirib ketadilar, tovushlar oʻrnini almashtiradilar.

Adabiy til normalariga muvofiq toʻgʻri talaffuz. Tarbiyachi adabiy til normalariga amal qilishi, oʻz nutqida turli mahalliy soʻz-larni ishlatmasligi, sóz urgʻulariga toʻgʻri ishlatishi lozim.

Nutqning intonacion-ifodaviy vositalaridan to'g'ri foydalanish. Nutqda fikrlar, his-tuyg'ularni aniq ifoda etish lozim. Bunga faqat so'zlar yordamidagina emas, balki nurqning intonatcion-ifodaviy vositalaridan: ovoz kuchi, temp, to'xtam, ritm, urg'u va hokazolardan Ifoydalanish orqali erishiladi.Tarbiyachining she'r, ertak va hikoyalar o'qib berayotganda ushbu vositalardan o'rinli foydalanishi bolalar asar mazmunini yaxshi tushunib olishlari va ona tilining go'zalligini his etishlariga yordam beradl.Tarbiyachining bir xil ohangdagi nutqi kichkintoylarni zerik-tiradi, asar mazmuniga bo'lgan qiziqishini susaytiradi. Bunday nutqni eshitishdan zerikkan bola boshqa narsalarga chalg'iydi. songra tarbiyachining nutqiga butunlay quloq salmay qo'yadi.

Tarbiyachi nutqning jo'shqin, intonaiciyaga boy bolishi. Shoshilib gapirish so'zlar tarkibidagi tovushlarni noaniq talaffuz etilishiga sabab b'oladi. Shuning uchun bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda shoshilmasdan, o'rtacha tempda (tezlikda) gapirish kerak. Bunday tempda gapirish nutqning aniq bo'lishini ta'minlaydi, aksincha, tez temp nutqning buzilishiga sabab b'oladi, uni idrok qilishni qiyinlashtiradi.Tarbiyachi ovozdan to'g'ri foydalanishi lozim. Haddan tash-qari baland gapirish bolalarni charchatadi. Agar ovoz past va kuchsiz bo'lsa, bolalar mashg'ulotda zerikadilar.

Tarbiyachi nutqining aniq, oddiy b'olishi, fikrlar izchillik bilan bir-biriga bog'lanib, tushunarli ifodalanishi. Bolalar tarbiyachidan, kattalardan tovush va so'zlarni to'g'i talaffuz etishni o'rganibgina qolmasdan, balki tinglagan ertak va hikoyalarining mazmunini aniq, qiziqarli tarzda qayta hikoya qila olishga, tevarak-atrofni kuzatish natijasida olgan taassurotlarini so'zlab berishga, o'z fikrlarini ketma-ketlik bilan bayon etishga, xulosalar qilishga ham o'rganadilat.Nutqda bildiriladigan mazmunni bolalarga tushunarli, qiziqarli. bog'langan holda yetkaza olish tarbiyachi nutqining zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi.Tarbiyachi fikrini ketma-ketlik bilan bayon etishi, o'z nutqini tushinarsiz so'zlar, murakkab va uzun jumlar bilan qalashiirib tashilamasligi kerak. Agar tarbiyachining nutqi qisqa jumladan iborat bo'lsa, uni bolalar oson o'zlashtiradilar. Aksincha, nutqdagi jumlar uzundan uzoq bo'lsa. nutuqning mazmunini tushunib olish juda qiyin bo'ladi.

Tarbiyachi lug'atining boy bo'lishi. Tarbiyachi o'z nutqida so'zlarni to'g'ri va aniq ishlata olsa, u holda uning nutqi bolalarga tushunarli bo'ladi. O'zbek tilining lug'ati juda ham boy, u doimo yangi so'zlar bilan to'ldirib boriladi. iste'moldan chiqqan so'zlar yo'qolib boradi. Tarbiyachi bolalar bilan nutqiy muloqotda b'olganda, ularning yoshini hisobga olib, ona tilining lug'at boyligidan keng f'oydalanmog'i lozim.So'zlarni to'g'ri tanlash tarbiyachi nutqini ifodali, mazmunli bo'lishini taminlaydi.Yangi so'zlarni ishlatishga juda-ehtiyotlik bilan yondashish kerak. Bunda ushbularni hisobga olish lozim.

- birinchidan, bolaning yoshini hisobga olib so'z tanlash;

- ikkinchidan, doimo yangi so'zlarni lug'atiga kiritish, lug'atida bor bo'lgan so'zlarni faollashtirish, ularning ahamiyatini tushintirish: Xulosa qilib aytganda, larbiyachining hikoyasi to'liq, chiroyli, so'zlari to'g'ri tanlab olingan, grammatik tomondan to'g'ri shakllangan, mazmunli va ifodali, mantiqan bog'langan bo'lishi kerak.

Tarbiyachi hikoya qilib berishda sinonimlardan, o'xshatish va hikoya so'zlardan foydalanishi zarur. Bu tarbiyachi nutqining ifodali, jozibali, muhim boy bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, tarbiyachi o'z nutqida xalq og'zaki ijodidan (maqol, matal tez aytish, topishmoq va h.k.). frazeologik so'zlardan o'rinli foydalanishi kerak.

Tarbiyachi nutqining samimiy bo'lishi., Tarbiyachi bola bilan ishlash jarayonida nutqining quyidagi jihatlariga e'tibor berishi lozim: Ona tilidagi hamma tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi.

Sof, aniq-ravshan nutqqa ega bo'lishi, ya'ni diksiyasi yaxshi.

Nutqida adabiy talaffuzdan (so'zlardan) foydalanishi, ya'ni orfoepik normalarga rioya qilishi.

Bayon etiladigan fikrlarning mazmuniga qarab intonatsiya vositalaridan (ovoz kuchi, tempi, urg'u, toxtam, ritm, tempi ohang) to'g'ri foydalanishga harakat qilishi.

Bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda yengil, sekin tempdagi, o'rtacha baland ovozda nutqdan foydalanishi. Bolalarning yoshiga qarab hikoya matnining mazmunini, bayon etishda sinonim, omonimlardan va kinoya so'zlardan, xalq og'zaki ijodiyotining namunalaridan foydalanishi. Nutqning grammatik tomoniga e'tibor bergan holda fikrini izchillik bilan, bir-biriga bog'lab bayon etishi.

Bolalar bilan so'zlashganda baland tonda gapirmaslik qo'pol so'zlardan (adabiy til normalariga to'g'ri kelmaydigan, mantiqsiz so'zlardan) foydalanmaslik. Tarbiyachining o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashining zarurligi. Nutqdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etmaslik natijasida yillar o'tishi bilan bu nuqsonlar mustahkamlanib, kishilar uni sezmay ham qoladi. Nutqida kamchiligi bo'lgan larbiyachi bolalar bilan ishlashi mumkin emas. Ko'pchilik kattalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf elish mumkin emas deb hisoblaydilar. Lekin bu fikr to'g'ri emas. O'z nutqi ustida doimiy va qat'iy ishlagan tarbiyachi nuqsonlarini bartaraf etishi mumkin. Ayniqsa, tarbiyachi o'z nutqida sirg'aluvchi (s,z) shovqinli (sh, j, ch), sonor (l, r) tovushlar talaffuziga e'tibor berishi kerak. Agar tovush talaffuzida nuqson bo'lsa, artikulyatsiya apparati a'zolarining harakatiga, tovush talaffuzini takomillashtirishga yordam beruvchi mashqlarni bajarishi kerak.

To'g'ri nafas olish va nafas chiqarish ustida ishlash. Tarbiyachi sózlashganda to'g'ri nafas olib, uni to'g'ri chiqarishi nutqning jarangdor, ohangdor bolishiga yordam beradi. U normal holdagi ovoz va tovushning hosil bo'lishini ta'minlaydi, nutqning bir xilligi va musiqaviyligini saqlaydi, nutqning mazmundorligiga qarab ovoz kuchi va balandligini ózgartirish imkonini beradi. Nutq jarayonida to'g'ri nafas chiqarishda kamchiligi bo'lgan tarbiyachi daimiy ravishda to'g'ri nafas chiqarishga yordam beruvuvchi quyidagi mashqlarni bajarib borishi zarur:

Tarbiyachi o'ziga qulay bo'lgan hotatni (turgan holda, chalqancha yotgan holda, o'tirgan holda) tanlaydi. Bir qolini qorniga, ikkichi qo'lini esa yondan ko'krak qafasining pastki qismiga qo'yib, burni orqali chuqur nafas oladi (bunda qorin yuqoriga ko'tariladi, oldinga chiqadi, ko'krakning pastki qismi kengayadi). Bu qorin va ko'krak qafasiga qo'yilgan qo'l yordamida his etiladi - shu vaqtning o'zida havo erkin, bir tekisda chiqariladi (qorin va ko'krak qafasning pastki qismi avvalgi holatiga qaytadi).

Burun orqali qisqa havo olib, uni 2 - 3 soniya davomida ópkada ushlab turib, so'ngra og'iz orqali bir tekisda cho'zib chiqarish.

Og'izni ochgan holda qisqa nafas olish va cho'zib ashula qilib unli tovushiardan (a, o, i, u) birontasini talaffuz etish.

Bir nafas chiqarishda bir nechta unli (a-->o-->u) tovushlarni talaffuz etish.

Bir nafas chiqarishda 3 dan 5 gacha sanash (bir, ikki, uch...). sekin-astalik bilan sanashni 10—15 tagacha yelkazish. Bir nafas chiqarishda teskari (o'n to'ri, o'n uch. o'n ikki) sanash.

Bir nafas chiqarishda (avval qisqa. so'ngra chózib) tez aytish aytib, bir jumla bilan ikkinchi jurnla órtasidagi to'xtam vaqtida havoni yutish (nafas olish):

a) Oq choynakka oq qopqoq, ko'k choynakka ko'k qopqoq.

b) Chovli simdan, chovgun misdan.

Lola arralaydi, Sora allalaydi.

G'uj chumchuqlar g'ujum ustida chug'urlashib, g'uj chumchuqqa g'ujum cho'qilatmaydi.

Bir nafas chiqarishda yonib turgan shamni puflab o'chirish, shoxdagi barglarni, yupqa qogozdan qirqilib, ipga osilgan kapalak shakllarini puflash va hokazolar.

Tarbiyachi nutqi bolalar nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun namuna ekanligi.

Pedagog-tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta‘sir ko‘rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, goyaviy e‘tiqodliligi, o‘z kasbini sevishi va bu kasbga bo‘lgan cheksiz sadoqati bilan o‘qituvchi – tarbiyachi boshqa kasb egalaridan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Q. Shodiyeva . “O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish“ o‘quv qo‘llanma T.: “O‘qituvchi” 1993 yil.
F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T.: “ISTIQLOL”,2006y.
2. F.R.Qodirova Bolalarni chet tilga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi. T.: “Sano-standart” 2009y.
3. F.R.Qodirova Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari. T.: “ISTIQLOL”,2006y
4. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” Darslik TDPU 2018yil.
5. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanma TDPU 2016yil.
6. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish metodikasi” T.: Fan va texnologiyalar 2009yil.
7. Edited by Mary Rafferty “A brief review of approaches to oral language development” USA 2014
8. (T.B. Filicheva, L. S.Volkova, G.Chirkina, L. Mo'minova. "Logopodiya" T. "Oqituvchi". 1993: Q.Shodiyeva. "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish" T. "Oqituvchi", 1994).
9. Хамраева, Е. (2021). NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA BOLALARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH YO'LLARI. *Мaktabgacha таълим журнали* , 3 (журнал дошкольного образования). Получено с <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3904>.
10. Хамраева Э. Киличова М - ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL ..., 2021
[Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions*](#)
11. Hamrayeva, E. (2021). BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARI. Chirchiq Davlat Universiteti.

[https://scienceweb.uz/publication/1206#:~:text=Hamrayeva%2C%20E.%20\(2021\).%20BOLANING%20RIVOJLANISH%20SOHALARI%20KOMPETENSIYALARI.%20Chirchiq%20Davlat%20Universiteti.](https://scienceweb.uz/publication/1206#:~:text=Hamrayeva%2C%20E.%20(2021).%20BOLANING%20RIVOJLANISH%20SOHALARI%20KOMPETENSIYALARI.%20Chirchiq%20Davlat%20Universiteti.)

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=KjnyVEQAAAAJ&citation_for_view=KjnyVEQAAAAJ:eQOLeE2rZwMC#:~:text=BO%E2%80%98LAJAK%20PEDAGOG%20TARBIYACHILARNING%20KASBIY%20KOMPITENTLIGINI%20SHAKLLANTIRISH%20TEXNOLOGIYALARI